

XORIJIY DAVLATLARDA POLITSIYA ORGANLARINING JAMOAT TARTIBINI SAQLASH BO‘YICHA IJOBIY TAJRIBASI VA UNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH MASALALARI

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi
podpolkovnik Mavlonov Asqarjon Ne‘matovich*

Annotatsiya. Ushbu maqolada, xorijiy davlatlar AQSH, Yaponiya va Yevropaning ba’zi davlatlaridagi politsiya organlarining jamoat tartibini saqlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Xorijiy davlatlar ijobiy tajribasini O‘zbekistonning Ichki ishlar organlari faoliyatiga tadbiq etish masalasi. Shuningdek, Ichki ishlar organlarini jamoat tartibini saqlashda boshqa idoralar bilan hamkorlik, axborot almashish va jamoat politsiyasi (community policing), mahalliy politsiya postlari (Yaponiyadagi "koban" tizimi) va jinoyatlarni oldini olishdagi profilaktik yondashuvlar misolida ularning samaradorligi o‘rganiladi. O‘zbekistonda Ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirishda ushbu tajribalardan qanday foydalanish mumkinligi xususida taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar. Ichki ishlar vazirligi, jamoat politsiyasi va mahalliy politsiya postlari hamda jinoyatchilikka qarshi kurash, hamkorlik, axborot almashinuvi, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi.

Annotatsiya. V dannoy state analiziruetsya rol politsii zarubejnyx stran — SShA, Yaponii i nekotoryx gosudarstv Yevropy — v obespechenii obshchestvennogo poryadka. Rassmatrivaetsya vopros primeneniya polojitelnogo zarubejnogo opyta v deyatelnosti organov vnutrennix del Uzbekistana. Krome togo, izuchaetsya vzaimodeystvie organov vnutrennix del s drugimi vedomstvami v dele podderjaniya obshchestvennogo poryadka, obmen informatsiey, a takje effektivnost takix podxodov, kak obshchestvennaya politsiya (community policing), sistema mestnyx politseyskix postov (yaponskaya sistema «koban») i profilakticheskie меры po preduprezhdeniyu prestupnosti. V zaklyuchenie predlagayutsya rekomendatsii i predlojeniya po ispolzovaniyu dannogo opyta dlya sovershenstvovaniya politseyskoy sistemy v Uzbekistane.

Klyuchevye slova: Ministerstvo vnutrennix del, obshchestvennaya politsiya i mestnye politseyskie posty, borba s prestupnostyu, sotrudnichestvo, obmen informatsiey, obshchestvennaya bezopasnost, obshchestvennyy poryadok.

Bugungi kunda, dunyo hamjamiyatida globallashuv, notinchliklar va siyosiy tahdidlar kuchayib borayotgan bir sharoitda, har-bir mamlakat ichki hayotida jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash masalasi beqiyos ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida rivojlangan davlatlar o'z tajribasida jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlashga doir yangi yondashuvlar – jumladan, jamoat politsiyasi, qo'shma patrullik, jinoyatlarni oldini olishning interaktiv usullari keng qo'llanilmoqda.

So'nggi yillarda yangi O'zbekistonda barcha sohalar qatori jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash sohasida ham tizimli islohotlar amalga oshirilib, mazkur islohotlarning huquqiy asoslari ham tobora mustahkamlanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son farmoniga muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash maqsadida jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ilg'or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan hamda aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son [farmoni](#) bilan "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi"¹ tasdiqlandi. Unda jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ilg'or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan aholining har qanday tahdidlardan himoya qilinishi haqida tizimli va strategik rejalar belgilab berilga.

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi. Jamoat xavfsizligini barqaror ta'minlanishi natijasida, mamlakatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohadagi o'zgarishlar taraqqiy etib rivojlanib boradi.

Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun, huquqni muhofaza qilish doirasidagi munosbatalarda Ichki ishlar organlarini o'rni va ahamiyati ayniqsa, jamoat tartibini ta'minlashda aholiga xizmat ko'rsatish va keng jamoatchilik bilan hamkorlik qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, soha xizmatlarini yangi avlod texnologiyalari va dasturiy tizimlar bilan ta'minlash orqali ularning ish samaradorligini oshirish hamda xizmat faoliyatini maqsadga muvofiq modellar asosida tashkil etish (modellashtirish) kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etdi.

Hozirda, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlashdagi vazifalari:

jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;

¹ <https://lex.uz/docs/5749291> O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 29-noyabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli farmoni

jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

jamoat joylarida, shu jumladan yo‘llarda, transport va turizm infratuzilmasi obektlarida jamoat xavfsizligini ta‘minlashga jalb etilgan barcha kuch va vositalar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tashkiliy-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash; fuqaroviy hamda xizmat quroli va uning o‘q-dorilari muomalada bo‘lishi sohasiga doir qoidalar va tartibga, ushbu sohadagi litsenziya va ruxsat berishga oid talablar hamda shartlarga rioya etilishini ta‘minlash;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash;

bu bo‘yicha huquqbuzarliklar profilaktikasi doirasidagi ishlarni samarali yo‘lga qoyish g‘ayriijtimoiy xulq-atvor sohiblari bo‘lgan fuqarolarga rasmiy ogohlantirish berish, umumiy, maxsus, yakka, viktimologik profilaktika chora-tadbirlarni amalga oshirish.

jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarlik va jinoyatlarning kompleks, tizimli tahlilini olib borish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish yuzasidan takliflar, ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar va tavsiyalar kiritish;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish bo‘yicha tadbirlar yuzasidan umumiy boshqaruv tizimini ta‘minlash;

jamoat xavfsizligini ta‘minlash holati haqida keng jamoatchilikni muntazam xabardor qilib borish, bu borada jamoatchilik fikrini o‘rganish;

jamoat xavfsizligini ta‘minlash va kriminologiya sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirish.

Bugungi kunda mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlash tizimida keng ko‘lamli demokratik islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida, “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonnig taraqqiyot strategiyasi” qabul qilindi. Uning ikkinchi ustuvor yo‘nalishi (mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish)da, “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shartsharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish” deb nomlangan 16-maqsadida, jamoat tartibini saqlash bo‘yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etgan holda

fuqaroni ichki ishlar bo'limiga tekshirish uchun olib borish amaliyotidan voz kechish hamda yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo'llarda avariya va o'lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlash kabi muhim chora-tadbirlar belgilangan.

Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashni tashkil qilishga ko'ra quyidagi asosiy funksiyalar o'zaro uyg'unlashtiriladi:

jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ob'ektiv zarur bo'lgan hamda ilmiy asoslangan maqsad va vazifalarni aniqlash, shuningdek jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlovchi asosiy sohaviy xizmatlar, xususan ular tarkibiy tuzilmalari tizimini yanada takomillashtirish;

jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlovchi sohaviy xizmatlar, ularning tarkibiy tuzilmalari hamda xodimlari, xususan, rahbarlarining funksional vazifalarini aniq taqsimlash; jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlovchi tarkibiy tuzilma va xizmatlar xodimlari, xususan, rahbarlarining ish faoliyatini ilmiy jihatdan tashkil qilish, ilg'or tajribalarni joriy etish, ushbu faoliyatni qat'iy intizom, tanqidiy tahlil, qonuniylik va keng jamoatchilik bilan hamkorlik qilish asosida ularning samaradorligini oshirish;

jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlovchi bo'linma va xizmatlarini kadrlar bilan, moddiy-texnik hamda ular faoliyatini huquqiy va tashkiliy-uslubiy ta'minlash e'tiborga olinadi.

Respublikamiz xududida har yili mingdan oshiq jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar sodir etilib ro'yxatga olinadi, hattoki jamoat joylaridagi sodir etilgan ushbu turdagi jinoyatlar natijasida begunoh odamlar fojiali tarzda halok bo'ladi. shuni aytib o'tishimiz lozimki, jamoat xavfsizligi bilan bog'liq jinoyatlar va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularga qarshi kurashish, ularning zararli oqibatlarini bartaraf etish zarurligini va yanada jamoat tartibini saqlashda amaliyotga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqoza etmoqda. Buning uchun rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliyotini tadbiq etish maqsadga muvofiq.

Shundan kelib chiqib, xorijiy davlatlarda politsiya organlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha ijobiy tajribasi va uni amaliyotga tadbiq etish masalalarni tahlil qilib, O'zbekiston sharoitida ularni qo'llash imkoniyatlari muhokama qilish maqsadga muvofiq.

Jumladan, jahon amaliyotida jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlashga doir yangi yondashuvlar yani, **jamoat politsiyasi, qo'shma patrullik, jinoyatlarni oldini olishning interaktiv usullari** keng qo'llanilmoqda.

Misol uchun, **jamoat politsiyasi modeli (Community policing)**

Jamoat politsiyasi—bu politsiya va jamoatchilik o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan model bo‘lib, uning asosiy vazifasi jinoyatni faqat jazolash orqali emas, balki uni oldini olish orqali bartaraf etishdan iborat.

AQSH, Buyuk Britaniya va Kanadada bu tizim keng tarqalgan bo‘lib, asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Jamoat bilan doimiy muloqotda bo‘lish orqali ishonchni oshirish.
- Mahalliy muammolarni aniqlash va ularni joyida hal qilish.
- Politsiyaning qonuniylik va ochiqlik darajasini oshirish².

Ushbu yondashuv jinoyatchilik darajasini pasaytiradi va politsiyaga bo‘lgan ishonchni oshiradigan model. “Jamoat politsiyasi” tushunchasi politsiya faoliyatini an’anaviy “jinoyatga javob berish” yo‘nalishidan chiqarib, jamoat, mahalla, fuqarolar bilan yaqin hamkorlikda jinoyatchilikka oldini olish, xavfsizlik muammolarini birgalikda hal qilishga o‘zgarishni anglatadi.

Shuningdek, **Yaponiyadagi "Koban" tizimi**

Yaponiyada mahalliy xavfsizlik politsiyaning "koban" deb ataluvchi kichik postlari orqali ta‘minlanadi. Ushbu postlar har bir mahallada joylashgan bo‘lib:

- Joydagi fuqarolar bilan muntazam muloqot olib boradi.
- Jinoyatlar bo‘yicha oldindan ma‘lumot yig‘adi.
- Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, yo‘qolgan narsalarni qaytarish kabi funksiyalarni bajaradi³.

Koban tizimi jamoat xavfsizligining qo‘shimcha kafolati sifatida ishlaydi va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha hamda jinoyatlarning oldini olishda faol rol o‘ynaydi. Bu model jinoyatchilikka qarshi profilaktika, fuqarolar bilan muloqot, yo‘l-yo‘lakay patrul qilish va jamoat xavfsizligi bilan shug‘ullanadi.

Buyuk Britaniya tajribasi: Profilaktikaga yo‘naltirilgan ish

Britaniya politsiyasi jinoyat sodir bo‘lgandan so‘nggina emas, balki uning oldini olishga yo‘naltirilgan dasturlar orqali faoliyat yuritadi. “Neighbourhood Policing” konsepsiyasi orqali politsiya mahallalarda doimiy ravishda fuqarolar bilan ish olib boradi. Ularning ehtiyoj va xavotirlarini tinglab, tegishli choralar ko‘radi. Shu bilan birga, maktablar, yoshlar markazlari va NNTlar bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar o‘tkaziladi⁴.

Germaniya tajribasi: Texnologiya va tahlil asosida boshqaruv

Germaniyada politsiya jamoat xavfsizligini ta‘minlashda zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanadi. Video kuzatuv, tahlil dasturlari, raqamli

² ojp.gov (NIJ, USA). America: Changing the Nature, Structure, and Function of the Police (Jack R. Greene) — АҚШда жамоат полициясининг ривожланиши ва таъсири ҳақида таҳлил.

³ ojp.gov. Defining Community Policing (J. Seagrave) — tushuncha va nazariy jihatdan jamoat politsiyasini ko‘rib chiqadi.

⁴ Hall, D.L. “Community Policing: An Overview of the Literature.” NCJ 128652

ma'lumotlar bazasi orqali jinoyat xavfini bashorat qilish va javob qaytarish tizimlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, politsiya faoliyatida fuqarolarning huquqlari va shaxsiy daxlsizligi yuqori darajada himoya qilinadi⁵.

Janubiy Koreyada politsiya uchun sun'iy intellekt asosida ishlaydigan "LAPIS" (Language Model-Augmented Police Investigation System) tizimi ishlab chiqilgan. Bu tizim politsiya xodimlariga tez va aniq huquqiy maslahatlar berishga yordam beradi, bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashishda samaradorlikni oshiradi⁶.

Germaniya va Janubiy Koreyada politsiya jamoat xavfsizligi uchun zamonaviy texnologiyalar (sun'iy intellekt, ma'lumot tahlili, avtomatlashtirilgan ma'lumot tizimlari)dan foydalanmoqda.

Ushbu xorijiy AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Janubiy Koreya davlatlarining tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, politsiya faoliyatini jamoat bilan hamkorlikda tashkil etish, profilaktikaga alohida e'tibor qaratish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ham bu kabi ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda joriy etish orqali samaradorlikni yanada oshirish mumkin. Ushbu, ilg'or tajribalarni umumiy jihatlarning tahlili quyidagi muhim ijobiy tomonlari hisoblanadi:

- **Yaqinlik va ishonch:** Ichki ishlar organlari xodimlarining jamoat bilan yaqin muloqoti.
- **Profilaktika:** jinoyatni sodir bo'lmagan oldin oldini olish.
- **Jamoat ishtiroki:** aholi va NNTlar bilan hamkorlikda harakat qilish.
- **Ma'lumotlar almashinuvi:** xavflar haqida tezkor axborot almashish.

Xorijiy davlatlarning jamoat xavfsizligi sohasidagi ilg'or politsiya amaliyotlari O'zbekistonda ham Ichki ishlar organlaridagi islohotlarni yanada samarali yo'lga qo'yish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Jumladan, jamoat politsiyasi, mahalliy patrul tizimi, jinoyatlarning oldini olish strategiyalari orqali jamoat bilan aloqalarni kuchaytirish va fuqarolarda xavfsizlik hissini oshirish mumkin.

Biroq, profilaktikaga asoslangan, jamoat bilan yaqin ishlovchi yangi mexanizmlar joriy etilishi lozim:

- Ichki ishlar organlarida mahalliy politsiya punktlari (koban analoglari) yaratish.
- Jamoatchilik va Ichki ishlar organlarini hamkorlik kengashlarini tashkil etish.
- Mahalla, fuqarolik jamiyati va NNTlarni xavfsizlik jarayoniga jalb etish.
- Ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

⁵ Article: "Germany's court says police use of crime data tech 'unlawful'," DW, 16 February 2023.

⁶https://www.reddit.com/r/KoreaTravelTip/comments/1jvms9f/how_does_the_tourist_police_system_work_in_korea/?utm_source

Xulosa sifatida, ushbu yondashuv jinoyat darajasini kamaytiradi, fuqarolar iltimosi va politsiya munosabatini yaxshilaydi, jamoat bilan ishlashni modernizatsiya qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari tizimida jamoat xavfsizligini ta’minlashda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samarali bo‘lishi mumkin, agar yuqorida keltirilgan yo‘llar va usullarni amalga oshirish orqali tizimli raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligi oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 29-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli farmoni
2. (NIJ, USA).America: Changing the Nature, Structure, and Function of the Police (Jack R. Greene) — AQShda jamoat politsiyasining rivojlanishi va ta’siri haqida tahlil. ojp.gov
3. ojp.gov. Defining Community Policing (J. Seagrave) — tushuncha va nazariy jihatdan jamoat politsiyasini ko‘rib chiqadi.
4. Hall, D.L. “Community Policing: An Overview of the Literature.” NCJ 128652
5. Article: “Germany’s court says police use of crime data tech ‘unlawful’,” DW, 16 February 2023.
6. https://www.reddit.com/r/KoreaTravelTip/comments/1jvms9f/how_does_the_tourist_police_system_work_in_korea/?utm_source